

## INTERYER MEBELLARIGA OID TERMINLAR GENEZISI

***Haqberdiyeva Sagina Shomurot qizi***

*O'zbek tili va adabiyoti kafedrasi mustaqil tadqiqotchisi*

*Samarqand davlat pedagogika instituti*

*[saginka2405@mail.ru](mailto:saginka2405@mail.ru)*

***Annotatsiya.** Mazkur maqolada interyer mebellariga oid terminlarning kelib chiqishi (genezisi), ularning tarixiy shakllanishi hamda o'zbek tiliga kirib kelish manbalari tahlil qilinadi. Interyer dizayni va mebel ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi bilan ushbu soha terminologiyasi ham izchil boyib bormoqda. Tadqiqot davomida interyer mebellari bilan bog'liq terminlarning etimologik manbalari, ularning o'zlashish jarayoni hamda semantik xususiyatlari ilmiy jihatdan yoritiladi.*

***Kalit so'zlar:** interyer, mebel, terminologiya, genezis, o'zlashma terminlar, dizayn, etimologiya.*

## ГЕНЕЗИС ТЕРМИНОВ ИНТЕРЬЕРНОЙ МЕБЕЛИ

***Хакбердиева Сагина Шомурот кизи***

*Самостоятельный соискатель кафедры узбекского языка и литературы*

*Самаркандского государственного педагогического института*

***Аннотация.** В данной статье анализируется происхождение (генезис) терминов, связанных с интерьерной мебелью, их историческое формирование, а также источники проникновения в узбекский язык. С развитием сферы интерьерного дизайна и мебельного производства терминологическая система данной области последовательно расширяется. В ходе исследования рассматриваются этимологические источники терминов, процессы их заимствования, а также семантические особенности.*

*Ключевые слова:* интерьер, мебель, терминология, генезис, заимствованные термины, дизайн, этимология.

## THE GENESIS OF INTERIOR FURNITURE TERMINOLOGY

*Haqberdiyeva Sagina Shomurot qizi*

*Independent Researcher at the Department of Uzbek Language and Literature,  
Samarkand State Pedagogical Institute*

**Abstract.** *This article analyzes the origin (genesis) of terms related to interior furniture, their historical formation, and the sources of their adoption into the Uzbek language. With the development of interior design and furniture manufacturing, the terminology of this field has been steadily expanding. The study examines the etymological sources of terms associated with interior furniture, the processes of their borrowing, and their semantic characteristics.*

**Keywords:** *interior, furniture, terminology, genesis, borrowed terms, design, etymology.*

Interyer dizayni inson yashash va faoliyat muhitini estetik hamda funksional jihatdan tashkil etishga xizmat qiladigan muhim sohalardan biridir. Ushbu sohada qo'llaniladigan mebel turlari va interyer elementlari o'ziga xos terminologik tizimni shakllantiradi. Har bir termin ma'lum tarixiy jarayon natijasida yuzaga keladi va til tizimida mustahkamlanadi.

Tilshunoslikda terminlarning kelib chiqishi va rivojlanishi terminlar genezisi doirasida o'rganiladi. Interyer mebellariga oid terminlarning genezisini tadqiq etish orqali ularning qaysi tillardan kirib kelgani, qanday semantik o'zgarishlarga uchragani hamda o'zbek tilida qanday shaklda qo'llanayotgani aniqlanadi.

Interyer mebellariga oid terminlar turli tillardan kirib kelgan bo'lib, ularning asosiy manbalarini quyidagi yo'nalishlarda o'rganish mumkin.

### **Sharqiy manbaga ega terminlar**

Ba'zi mebel terminlari sharq madaniyati bilan bog'liq bo'lib, ular qadimiy turkiy yoki fors-arab tillari orqali shakllangan.

*DIVAN* [f. - podsho o'tiradigan kursi]. O'tirish va yotish uchun mo'ljallangan suyanchiqli, ikki chetida dastasi yoki yostiqchasi bo'lgan yumshoq mebel. *Har kuni ishdan kelaman-u divanga tappa tashlayman.* S.Siyoev, Yorug'lik [1, 606 b.].

*PESHTAXTA* [f. - oldinga qo'yilgan taxta, stol] 1. Do'konda, magazinda, bozorda sotuvchini xaridordan ajratib turadigan, ustiga sotiladigan mollar qo'yiladigan, ko'pincha xaridor tomoni yopiq maxsus stol. *Magazinda odam yo'q... Peshtaxta ortqasida yoshgina sotuvchi yigit o'tirardi.* S.Ahmad, Jimjitlik. *Mudir peshtaxtani aylanib o'tib, Gulchehraga yaqin keldi. "Saodat". Bu erda hozircha dehqonlar o'z mahsulotlari bilan savdo qilishyapti, peshtaxtalar qo'yib berganmiz.* Gazetadan. *Yaqinda "Sharq ziyakori" kitob do'konida peshtaxtani bezab turgan bir noyob albom-kitobga ko'zim tushib, beixtiyor uni varaqladim.* Gazetadan [3, 253 b.].

2. bnk. Karnizning bo'ylamasiga qo'yilgan kichik to'sin yoki taxta [3, 254 b.].

*SANDAL I* [a. < hind. + f. - kursi, stol] O'rta Osiyo, Yaqin Sharq mamlakatlari va Yaponiya da ma'lum bir joyni isitish uchun mo'ljallangan manqal; xonaning o'rtasiga yoki chekkaroq eriga chorburchak chuqurchaga o'rnatilgan, ustiga ko'rpa yopilib, atrofiga ko'rpachalar to'shalgan xontakhtadan iborat bo'lib, ichiga saksovul yoki ko'mir cho'g'i solinadi; tancha (qish sovuğida sandalaga oyoq-qolni tiqib isini ladi, ayni paytda ustiga dasturhon yozib, undan stol sifatida foydalaniladi). *Kelinchak hokandozda cho'g keltirib, sandal chuqurchasiga soldi va ustiga yangi quroq ko'rpani yopdi.* Gazetadan. *Bu uydagi sandal atrofiga shohi va atlas ko'rpachalar to'shalgan, katta-katta parqu yostiqlar qo'yilgan.* A. Qahhor, Qo'shchinor chiroqlari. *Undoq bo'lsa, olib kiringlar, sandalda isinsin, taom beringlar.* Mirmuhsin, Me'mor [3, 438 b.].

*SANDIQ* [a. - quti, yashik, sandiq] Turli buyumlarni, bisotlarni solib qo'yishga mo'ljallangan, ochilib-yopiladigan qopqoqli, qulf-kalitli, yashik shaklidagi uy-ro'zg'or buyumi. *Sandiq ichida podshoh in'om qilgan oltinning bir qismi hamyoni bilan turgan edi.* P. Qodirov, Yulduzli tunlar. *Men keltirgan atlasni Yorim solmas sandiqqa. Qo'shiqlar. Yoshlig'dan boshlab kelinoyilarning sandiqlarini, qutilarini tintib o'rgan gan Nuri... kaliti burnida unutilgan bir qu tuni ochdi.* Oybek, Tanlangan asarlar.

**PO'LAT SANDIQ.** O't tushganda kuymaydigan, yonmaydigan metall sandiq: seyf. Po'lat sandiqda turgan veksellarni kovlashtirib, siznikini topib berishimni oson deb o'ylaysizmi? K. Yashin, Hamza [3, 439 b.].

**XONTAXTA** [f. < bezatilgan dasturhon + taxta] O'tirib ovqatlanish uchun xizmat qiladigan, oyoqlari kalta yog'och stol. *Xontakhta atrofiga ko'rpacha solmoq. Xosiyat xola lagandagi oshni keltirib, xontakhtaga qo'ydi.* R. Fayziy [4, 412 b.].

### **Rus tili orqali kirib kelgan terminlar**

O'zbek tilidagi ko'plab interyer mebel terminlari rus tili orqali o'zlashgan. Bu jarayon asosan XX asrda kuchaygan.

**KRESLO** [qad. r. kresol – hayvonni so'yish uchun to'shalgan narsa; keyinchalik: keng o'tirg'ich, o'rindiq] Tirsaklarni qo'yib, suyanib o'tiriladigan keng kursi. *Smirnov Pogodin ni kresloga taklif qildi, uzi ham uning yoniga stul keltirib o'tirgach, gapning oldini olib, so'z qotdi.* Sh. Rashidov, Bo'rondan kuchli. *Masharif Qoriev bilan Yoqutoy raisning ro'barosidagi kresloga o'tirishdi.* J. Sharipov, Xorazm [2, 416 b.].

**Krovat** ayn. karavot [2, 418 b.].

**PARTA** [r.] O'quvchilar uchun mo'ljallangan, ustki taxtasi o'tirgan o'quvchi tomon bir oz qiya o'rnatilgan, ostki qismi o'rindiq'i bilan birlashtirilgan maxsus stol. *Bir partada o'qigan bolalar. O'qituvchimiz Isoq aka o'qish kitobimizni napma ustiga olib qo'yishni ayt didilar.* S. G'afurov, Jonli sovg'a. *Ichkaridagi har bir napma raqamlangan: nazoratchi qura tashlash yo'li bilan abituriyentlarni joylashtiradi.* Gazetadan [3, 228 b.].

**STOL** [qad. r. stol - kursi, o'rindiq; taxt] 1 Dasturxon tuzash yoki ishlash uchun mo'ljallangan, tirkak yoki oyoqchalarga o'rnatilgan keng gorizontali taxtali baland kursi; mebel turi. *To'garak stol. Tortmali stol. Yozuv stoli. Ovqat stoli. Operatsiya stoli.* [Abdulla Qahhor] *Har kuni muayyan vaqtda yozuv stolida o'tirishlari shart edi.* K. Qahhorova, Choraq asr hamnafas. *Lobarxon katta uydagi stolga dasturxon tuzab... choynakdagi choyni qaytarib turardi.* Gazetadan. *Juvon bir kosa hushbo'y va hushta'm ovqatni stolga qo'yib, sekin nari ketdi.* S. Nurov, Maysalarni ayoz urmaydi [3, 572 b.].

**STUL** [r. stul < nem. stuhl] Odatda suyanchiqi bo'ladigan, bir kishilik o'rindiq; kursi. *Dadam suvoq i ko'chgan devorlarga, eski shkaf, oyoqi maymoq stullarga bir*

*qarab qo'ydi. S. Siyoev, Yorug'lik. Hafiza Umidning ko'zlariga tikildi. Bir lahzadan keyin stulga o'tirdi. U Umidning yuragida bir nima borligini sezardi. Mirmuhsin, Umid [3, 574 b.].*

Bu terminlar rus tilidan o'zlashgan bo'lsa-da, o'zbek tilida fonetik jihatdan moslashgan holda qo'llanadi.

### **G'arbiy Yevropa tillaridan kirgan terminlar**

Zamonaviy interyer dizayni rivoji bilan ko'plab terminlar ingliz va fransuz tillaridan o'zlashgan.

**MEBEL** [fr. *Meuble* - uying ko'char jihozlari < lot. *mobilis* - harakatchan, ko'chadigan]. Divan, stol, stul, shifonyer va sh.k. yog'ochdan yasalgan uy jihozlari. *Jazilab turgan hovlisi chogroqqina bo'lsa ham, uyda xonalari ko'p... shahar dagidek mebellar bilan jihozlangan. A. Muxtor, Kumush tola [2, 576 b.].*

**GARDEROB** [fr. *garde-robe* < *garde* - saqlash + *robe* - ko'ylak] 1. Kiyim-kechak qo'yiladigan shkaf; kiyim javoni. *Zebo parishon holda pidjagini garderobga qo'ydi. Shuhrat, Shinelli yillar.*

2. Jamoat binolariga, muassasalarga kiraverishda ust kiyimlar topshirish va saqlash uchun ajratilgan maxsus joy. *Zokir garderobga poxol shlyapasini topshirayotganda, yoqimli piyozdog' hidi dimog'iga urilib, og'zi suv ocha boshladi. P. Qodirov, Uch ildiz [1, 488 b.].*

*Garderobxona q. garderob 2 [1, 488 b.].*

**GARNITUR** [fr. *garniture* - biror narsaning majmui] Biron-bir maqsad uchun xizmat qiluvchi narsa-buyumlarning yig'masi, majmui. *Mebellar garnituri. Poshsha xola uyga kirib, og'zi ochilib qoldi: bir tomonda garnitur, bir tomonda radio, televizor, uyga kiraverishda - koridorda telefon. D. Nuriy, Osmon ustuni [1, 489 b.].*

Bu terminlar zamonaviy interyer dizayn uslublari bilan bog'liq holda tilga kirib kelgan.

Xulosa qilib aytganda, interyer va mebel terminlarining genezisi ularning turli tillardan o'zlashganini ko'rsatadi. Ushbu terminlar o'zbek tiliga kirib kelish jarayonida fonetik va semantik jihatdan moslashgan. Interyer dizayni sohasi rivojlanib borishi

bilan yangi terminlar ham shakllanmoqda. Shu sababli bu terminlarning kelib chiqishi va rivojlanishini o'rganish terminologiya va tilshunoslik uchun muhim ahamiyatga ega.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Madvaliyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 1-jild, A-D. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent: 2006. – 679 b.
2. Madvaliyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 2-jild, E-M. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent: 2006, – 671 bet.
3. Madvaliyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 3-jild, N-Tartibli. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent: 2006, – 687 b.
4. Madvaliyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 4-jild, Tartibot – Shukr. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent: –2006, – 606 b.
5. Madvaliyev A. *O'zbek tilining izohli lug'ati*. 5-jild, Shukrona – H. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi". Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent: 2006, – 571 b.
6. Zuparova D.D., Karimova N.N. "Dizayn tarixi". O'quv qo'llanma. – Toshkent: 2014. – 112 b.
7. Haqberdiyeva S.Sh. "Turar-joy binolari interyerlarida bionika shakllaridan foydalanish tamoyillari". Magistrlik dissertatsiya. – Samarqand: 2023. – 72 b.